



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning
20__-20__-o'quv yilida 7-sinflar uchun
III chorak ona tili fanidan

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 7-sinf ona tili fanidan III chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Matn o‘qish(Fizika qonunlari nima uchun kerak?). Ensiklopedik lug‘atlar	1		
2.	“Fizika hayotni yengillashtiradi” matniga oid topshiriqlar	1		
3.	Matnga oid topshiriqlar ustida ishlash.	1		
4.	Avtomobil rusumlarini ifodalovchi nomlar, ularning talaffuzi va imlosi. Qisqartma so‘zlar imlosi. Audiomatn	1		
5.	Matn o‘qish (Elektromobil o‘zi nima?) Kelishiklarni belgili va belgisiz qo‘llash o‘rinlari	1		
6.	Kelishik qo‘shimchalari	1		
7.	Grafik chizmalar bilan ishlash	1		
8.	4-BSB. Matnni davom ettirish (25 ball)	1		
9.	Mustahkamlash	1		
10.	Tutilmay gapiraman talaffuz qoidalari. Gap urg‘usi elementlari	1		
11.	Omma oldida nutq so‘zlash qoidalari	1		
12.	Nutq madaniyati. Egalik shakllari	1		
13.	So‘zlovchi nutqi bo‘yicha aniq faktlar, dalillar asosida fikr bildirish	1		
14.	Yozuvchi bo‘lish osonmi? Badiiy uslub	1		
15.	Matn tuzish (“O‘tkan kunlar” yozilgan xona...). Badiiy ijod jarayoni bilan bog‘liq til birliklari, ularning ma’nolari	1		
16.	Adabiyot darsligidagi matnlar bilan ishlash. Ko‘chma ma’noli so‘zlar. Tinish belgilar	1		
17.	“Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi asosida matn tuzish	1		
18.	5-BSB. Loyiha ishi. Hikoya yozish (25 ball)	1		
19.	Mustahkamlash	1		
20.	Ochiq osmon ostidagi muzey. Tasviriy matn. Muhokama. Muzeylar faoliyatiga oid til birliklari, olinma so‘zlar	1		
21.	Audiomatn (“Dron nega “dron” deyilgan?”)	1		
22.	Matn o‘qish.(Inson hayoti davomida ko‘rishi kerak bo‘lgan shahar)	1		
23.	Topshiriqlar ustida ishlash. -lar qo‘shimchasining xususiyatlari.	1		
24.	Temiryo‘llar. Tasviriy matn. Transport. Yo‘l harakati	1		
25.	Berilgan izohlar, belgilar va atamalar	1		
26.	Matn o‘qish (“Meni kichik olim deyishadi”). Topshiriqlar ustida ishlash	1		
27.	Matn o‘qish (“Meni kichik olim deyishadi”). Topshiriqlar ustida ishlash	1		
28.	3-CHSB (40 ball)	1		
29.	Mustahkamlash	1		
30.	Matn tuzish (Boburning shoh asari). Memuar. Test topshiriqlari	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Matn o‘qish(Fizika qonunlari nima uchun kerak?). Ensiklopedik lug‘atlar

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

– mavzu doirasida berilgan matnlar mazmuni orqali milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

– dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish;

– o‘zining fuqarolik burchlarini bilish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

1. “Fizika” so‘zini eshitganda xayolingizga nimalar keladi?

2. Fizika fani nimalarni o‘rgatadi?

3. Fizikani o‘rganishning qanday ahamiyati bor deb o‘ylaysiz?

Savol-javoblarni o‘qing. Fizikaga doir bu bilimlar hayotimizni qanchalar yengillatishi mumkinligi haqida mulohaza qiling. O‘zingiz ham hayotiy misollar topishga harakat qiling.

Savol:sizda qizil hamda yashil pomidorlar bor va ular aralashib ketgan. Qisqa vaqt ichida ularni qanday qilib bir-biridan ajratish mumkin?

Savol:sovun ko‘pigi naychadan puflansa, hosil bo‘lgan shaffof pufak nega avval yuqoriga ko‘tarilib, so‘ng pastlay boshlaydi?

Javob:pomidorlar suv to‘la katta idishga solinadi.

Og'irlikdagi farqi sabab pishgan pomidorlar idish tubiga cho'kadi, yashillari esa yuzaga qalqib chiqadi.



Savol: temir ham, yog'och ham bir xil haroratga ega. Nega qo'l tekkizganda metall yog'ochga nisbatan sovuq tuyuladi?

Javob: balchiqdan oyoqni tortib olayotganda oyoq tagi bilan botqoq tubi orasida havosiz bo'shliq paydo bo'ladi. Shu sababli bunda inson nafaqat yopishqoq balchiq qarshiligini, balki atmosfera bosimini ham yengishi kerak. Shuning uchun tayanch maydonini kengaytirish lozim. Buning uchun esa uzun taxta bo'lagi, tayoq yoki daraxt shoxlaridan foydalansa bo'ladi. Javob: chunki ularning harorat o'tkazuvchanligi turlicha. Yog'ochdan yasalgan predmetni qo'lga olganimizda qo'limiz harorati yog'ochning yuzasiga o'tadi, uning ichiga bu haroratning tarqalishi sekin kechadi. Metall predmetni ushlaganimizda esa haroratimiz nafaqat uning yuzasiga, balki ichiga ham tez tarqala boshlaydi. Shuning uchun butunlay qizib olmaganicha metall sovuq tuyulaveradi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Ayting-chi, nega pishgan pomidorlar xomiga nisbatan og'ir bo'ladi?
2. Vaqt o'tib sovun pufagining pastlashiga nima sabab bo'ladi?
3. Nega temir yog'ochga nisbatan sovuq tuyuladi?
4. Nega botqoqda harakatlanish qiyin?
5. Bu hodisalar boshqacha ko'rinishda hayotimizda yana uchraydimi? Qaysi holatlarda?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Fizika hayotni yengillashtiradi” matniga oid topshiriqlar

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

- dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish;
- o‘zining fuqarolik burchlarini bilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

- aniq hisob-kitoblarni bilish, o‘rganilgan mavzu doirasida grammatik jadvallarni o‘qiy olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.


III. Yangi mavzu bayoni:

Fizika to‘g‘risida gap ketsa, biz qandaydir murakkab formula, gipoteza-yu, teoremlarni, xullas, oddiy odamga keraksiz, tushunarsiz voqea-hodisalarni tasavvur qila boshlaymiz.

Go‘yo bu soha bizga begona – juda-juda uzoqda.

Balki qulog‘ingizga chalingandir, fizikada “kvant mexanikasi” va “kosmologiya” degan tushunchalar bor. Aslida bu ikki tushuncha olam qonuniyatlarining ilmiy asosidir. Bizning hayotimizni tashkil qiluvchi hamma narsa: sayyoralar-u yulduzlar, bulutlar-u vulqonlar, mevalar-u shirin taomlar, binolar, tovushlar, musiqa asboblari, xullas, bari shu ikki qutb orasida joylashgan. Qolaversa, bularning hammasini fizik qonunlar boshqaradi.

Atrofga diqqat bilan qarang, fizika qonunlarining amalda qanday ishlayotganini his qilishga urining. Yoki o‘zingiz buni sinab ko‘ring. Buning uchun sizga ikkita tuxum kerak bo‘ladi. Biri xom, ikkinchisi qaynatib pishirilgan bo‘lsin. Ularni aylantirasiz. Keyin esa to‘xtatasiz. Qaynatilgan tuxum shu zahoti to‘xtab qoladi. Xomi esa to‘xtashni “istamaydi”. Chunki siz uning faqat qobig‘ini to‘xtatdingiz, ichidagi suyuqlik hamon aylanishda davom etmoqda. Bu ichki impuls momenti saqlanish qonunining ko‘z oldingizda namoyon bo‘lishidir. Uni soddaroq qilib shunday tushuntirish mumkin: tizimo‘zining doimiy o‘qi atrofida aylanishni boshlar ekan, to nimadir uni to‘xtatmaguncha aylanishda davom etaveradi. Bu koinotning asosiy qonunlaridan biri hisoblanadi.



Demak, oshxonamizda sinab ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan qonun misli ko‘rilmagan texnologiyalarning tuzilishini ham tushuntirib berishga qodir!

Bizni o‘rab turgan olamning qanday tuzilganini bilish uchun dastlab uning asosi bo‘lgan fizik qonuniyatlarni o‘rganishimiz kerak.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. “Olamdagi hamma narsani fizik qonunlar boshqaradi” degan fikrni qanday tushunish mumkin? Izohlab bering.
2. Nega qaynatilgan tuxum aylanishdan to‘xtadi, xom tuxum esa yo‘q? Matn asosida javob bering.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

62 listdan iborat ona tili fanidan 7-sinf III chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**